Sultanova Durdona Axmadjonovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi;
e-mail: durdonasultanovna@gmail.com)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "TAOM" KOMPONENTLI MAQOLLARDA KO'CHMA MA'NONING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi "taom" komponentli maqollarning semantik-pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida taom nomlari ishtirok etgan maqollarda ko'chma ma'noning yuzaga kelish mexanizmlari, ularning lingvomadaniy asoslari hamda xalq dunyoqarashini aks ettirishdagi o'rni o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *maqol, taom komponenti, ko'chma ma'no, metafora, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, paremiologiya.*

ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРЕНОСНОГО ЗНАЧЕНИЯ КОМПОНЕНТА «ЕДА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ пословиц английского и узбекского языков, содержащих компонент «еда». Исследуются семантико-прагматические особенности таких пословиц, механизмы формирования переносного значения, а также их лингвокультурная специфика. Результаты исследования показывают, что пищевые образы в обоих языках выступают концептуальными метафорами, выражающими трудолюбие, терпение, бережливость, единство и нравственные ценности. Кроме того, пословицы отражают национально-культурные особенности народов.*

Ключевые слова: *пословица, пищевой компонент, переносное значение, метафора, лингвокультура, сопоставительный анализ, паремиология.*

EXPRESSION OF FIGURATIVE MEANING IN PROVERBS CONTAINING THE COMPONENT "FOOD" IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article examines the figurative meanings of "food" related proverbs in English and Uzbek from a comparative perspective. The study focuses on the semantic and pragmatic features of proverbs containing food components and investigates the mechanisms through which figurative meanings are created.*

Keywords: *proverb, food component, figurative meaning, metaphor, linguaculture, comparative analysis, paremiology.*

Kirish. Til xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy tajribasi, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Har bir xalqning hayot tarzi, urf-odatlari, an'analari va ma'naviy merosi uning tilida, ayniqsa, xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan maqollarda o'z aksini topadi. Maqollar xalqning ko'p asrlik kuzatuvlari, hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini ixcham, obrazli hamda ta'sirchan shaklda ifodalovchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida maqollar semantikasi va ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ingliz va o'zbek tillaridagi "taom" komponentli maqollarda ko'chma ma'noning ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish ikki xalqning olamni idrok etishidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlashga, maqollarning semantik-pragmatik xususiyatlarini ochib berishga hamda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Paremiologiya va frazeologiya sohasida ko'plab olimlar tomonidan maqollar semantikasi va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan. Xususan, V.Mider, A.Dandes, G.L.Permyakov, N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlari maqollarni o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda maqollar konseptual metafora nazariyasi asosida ham tahlil qilinmoqda. J.Lakoff va M.Jonson metaforaning inson tafakkuridagi rolini yoritib bergan bo'lsa, paremiologik birliklardagi metaforik modellar turli tillarda qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Biroq ingliz va o'zbek tillaridagi aynan taom komponentli maqollarning ko'chma ma'nolarini qiyosiy aspektda tadqiq etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Metod va metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik tahlil, lingvomadaniy tahlil hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi taom komponentli maqollar saralanib, ulardagi ko‘chma ma’no hosil qiluvchi birliklar aniqlandi. Tahlil jarayonida maqollarning denotativ va konnotativ ma’nolari o‘zaro qiyoslandi hamda ularning madaniy asoslari izohlandi.

Muhokama va natijalar. Maqollarning semantik tuzilishida ko‘chma ma’no alohida o‘rin tutadi. Chunki maqollarda qo‘llangan so‘z va obrazlar ko‘pincha o‘zining bevosita ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’no qatlamlarini ham ifodalaydi. Natijada ular nafaqat muayyan predmet yoki hodisani, balki inson xarakteri, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi. Shu jihatdan, maqollardagi ko‘chma ma’noning yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida “taom” komponenti ishtirok etgan maqollar alohida qiziqish uyg‘otadi. Chunki oziq-ovqat va taom inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, turli xalqlarning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, milliy mentaliteti hamda madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli non, osh, sho‘rva, yog‘, sut kabi taom nomlari o‘zbek maqollarida, bread, butter, soup, pudding, meat kabi birliklar esa ingliz maqollarida, ko‘pincha, ramziy va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi. Bunday maqollar orqali mehnatsevarlik, sabr-toqat, tejamkorlik, boylik, qanoat, do‘stlik va boshqa ijtimoiy-madaniy tushunchalar ifodalanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, taom komponentlari har ikki tilda metaforik ma’no hosil qilishda faol ishtirok etadi.

Half a loaf is better than no bread. Bread (non) komponenti bevosita oziq-ovqat emas, balki mavjud imkoniyat yoki boylik ramzi sifatida qo‘llanadi. Maqolning ko‘chma ma’nosi “oz bo‘lsa ham, bor narsaga qanoat qilish kerak” degan g‘oyani ifodalaydi.

Qozonda bo‘lsa, cho‘michga chiqadi. Ushbu maqolidagi qozon va taom obrazlari inson mehnati natijasi hamda imkoniyatlar metaforasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolning ko‘chma ma’nosi “natija sababga bog‘liq” degan mazmunni anglatadi.

Too many cooks spoil the broth. Maqoldagi *broth* (sho‘rva) komponenti jamoaviy faoliyat timsoli hisoblanadi. Bu yerda ko‘chma ma’no bir ishga haddan tashqari ko‘p kishining aralashuvi salbiy natijaga olib kelishini bildiradi.

*“Bir qozonda ikki qo‘chqorning boshi qaynamaydi”*maqoli ham ayni mazmundagi metaforik ma’noni ifodalaydi. Bunda qozon ijtimoiy makon, qo‘chqorlar esa yetakchilikka intiluvchi shaxslarning ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, ingliz tilida *bread,* ko‘pincha, tirikchilik va daromad konsepti bilan bog‘lansa, o‘zbek tilida *non* muqaddaslik, rizq va baraka timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“A cake not worth the candle” maqolida cake (pirojniy) va candle (sham) obrazlari orqali sarflangan xarajat va erishilgan natija o‘rtasidagi nomutanosiblik ifodalanadi. Bu maqolda taom komponenti iqtisodiy manfaat va samarasizlik tushunchalarini ifodalashga xizmat qiladi.

“You cannot have your cake and eat it too” maqolida cake komponenti qimmatli imkoniyat yoki boylik ramzi sifatida qo‘llanadi. Maqol, bir vaqtning o‘zida, ikki qarama-qarshi manfaatni saqlab qolishning imkonsizligini anglatadi. Bu yerda taom nomi insonning tanlov qilish zarurati bilan bog‘liq falsafiy mazmun kasb etgan.

“Too many cooks spoil the broth” maqolida broth (sho‘rva) komponenti muayyan faoliyat yoki ish natijasining metaforik ifodasi sifatida ishlatilgan. Maqol bir ishga haddan tashqari ko‘p kishining aralashuvi natijaning yomonlashishiga olib kelishini anglatadi.

“The proof of the pudding is in the eating” maqolida pudding komponenti har qanday ish yoki g‘oyaning amaliy natijasini ifodalaydi. Mazkur maqol nazariy mulohazalar emas, balki amaliy tajriba haqiqat mezoni ekanligini ta’kidlaydi.

“One rotten apple spoils the whole barrel” maqolida apple (olma) komponenti inson yoki ijtimoiy guruh vakilining ramzi sifatida qo‘llanadi. Bitta yomon odamning butun jamoaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mazkur obraz orqali ifodalangan.

“Don’t put all your eggs in one basket” maqolida eggs (tuxum) komponenti boylik, imkoniyat yoki resurslarning metaforik ifodasi hisoblanadi. Maqol barcha imkoniyatlarni bitta yo‘nalishga jamlash xavfli ekanligini, tavakkalchilikni taqsimlash zarurligini uqtiradi.

“One man’s meat is another man’s poison” maqolida meat (go‘sht) va poison (zahar) komponentlari qarama-qarshi obrazlar sifatida qo‘llangan. Maqol insonlarning didi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo‘lishini anglatadi. Bir inson uchun foydali bo‘lgan narsa boshqasi uchun zararli yoki nomaqbul bo‘lishi mumkin.

“As you brew, so shall you drink” maqolida brew (ichimlik tayyorlash) va drink (ichish) componentlari sabab va oqibat munosabatini ifodalaydi. Inson o‘z harakatlarining natijasiga o‘zi javobgar ekanligi taom va ichimlik bilan bog‘liq obrazlar orqali ifodalangan.

Tahlil qilingan maqollar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi taom komponentli maqollarda oziq-ovqat nomlari ko‘pincha mehnat, farovonlik, tajriba, ehtiyotkorlik, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy munosabatlar kabi mavhum tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu holat taom komponentlarining ingliz xalqining lisoniy manzarasida muhim konseptual birlik sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi “osh”, “palov”, “non” komponentli maqollar singari, ingliz maqollarida ham taom nomlari xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilida palov leksemasining sinonimik variantlaridan biri sifatida osh atamasi ham keng qo‘llanadi. Bu holat “O‘zbekka osh yaxshi, qozoqqa – go‘sht” [4;423-b.] maqolida yaqqol namoyon bo‘lib, unda turli xalqlarning milliy taomlarga bo‘lgan munosabati ifodalangan. “Oltmishga kirgan otadan osh so‘rama” [4;467-b.] maqolida esa oshning tayyorlanishi va iste’moli bilan bog‘liq fiziologik hamda maishiy jihatlar aks ettirilgan. Xususan, oshning tarkibiy masalliqlari va uni iste’mol qilishdagi murakkabliklar yoshi ulg‘aygan inson imkoniyatlari bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

“Osh” komponenti ishtirok etgan ayrim maqollarda esa iqtisodiy tengsizlik va moddiy ta’minlanganlik masalalari ifodalanadi. Masalan, “Qashshoq osh topgan kuni og‘zi kuyar” [4;487-b.] hamda “Kambag‘al osh topsa, qo‘ygani idish topmas” [4;485-b.] maqollarida kambag‘allikning turli ko‘rinishlari tasvirlanib, insonning moddiy imkoniyatlari cheklanganligi sababli eng oddiy ehtiyojlarini ham qondirishda qiyinchiliklarga duch kelishi obrazli tarzda ifodalangan.

Shuningdek, o‘zbek maqollarida osh leksemasi, ko‘pincha, umumlashgan ma’noda “ovqat”, “rizq” yoki “tirikchilik manbai” semalarini ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Buni “Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda” [4;24-b.], “Gap bilan osh pishmas” [4;25-b.], “Ish bor yerda osh bor” [4;27-b.], “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar” [4;29-b.], “Ishsiz boshim – oshsiz boshim” [4.30], “Kishining qo‘lidan ishini olsang, og‘zidan oshini olasan” [4.31], “Mehnatli osh – osh bo‘lar, mehnatsiz osh – tosh” [4;32-b.] kabi maqollar misolida kuzatish mumkin. Ushbu birliklarda osh leksemasi insonning halol mehnati evaziga qo‘lga kiritiladigan rizq va farovonlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada “osh” konsepti mehnat, tirikchilik, moddiy ta`minot va ijtimoiy farovonlik kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘langan holda xalqning axloqiy-me’yoriy qarashlarini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek tillaridagi taom komponentli maqollarda ko‘chma ma’noning ifodalanish mexanizmlari aniqlandi. Har ikki tilda taom obrazlari inson faoliyati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim metaforik vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida bread, broth kabi birliklar iqtisodiy va pragmatik mazmunlarni ifodalashga moyil bo‘lsa, o‘zbek tilida non, qozon, osh kabi komponentlar ko‘proq ma’naviy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘lanadi. Bu esa maqollarning xalq mentaliteti va lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 1980.

(2). Mieder W. Proverbs: A Handbook. Westport, Greenwood Press, 2004.

(3). Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. — Москва: Наука, 1988.

(4). Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013.

(5). Dundes A. On the Structure of the Proverb. Proverbium, 1975.

(6). Majidova R.U., Akramova M.U. Anthropocentric proverbs and their functions. Semantic classification of English and Uzbek anthropocentric proverbs. Scholar, 2(2), 2024, p. 174–178.

(7). Khurramova G. Phraseological units, proverbs as means of verbalizing concept “Friendship”. Экономика и социум-научное электроное издание № 129910-1, 2021, с .274–277.

(8). Toraboyeva S.Z. Ingliz va o`zbek tillarida “do‘st” konseptining sotsial o‘ziga xosligi. Journal of new central innovations, vol.7, Issue4, 2022, p. 95–99.

(9). Raimova N.O. Expression of gender characteristics in anthropocentric proverbs. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta`lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(8), Nukus, 2023, 106–108-betlar.

(10). Davronova M.I. O‘zbek maqollarida milliy taomlar ifodasi. Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalari va ta’lim mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya, 23–24-aprel 2025-yil.